

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 16 - dekabr

452-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Chorva hayvonlarini 2023-2024-yillarda qishlov  
davridan betalofat olib chiqish to'g'risida**

Chorvachilik sohasida joylardagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish hamda chorvachilik subyektlarida qishlov mavsumini namunali o'tkazishni tashkil etish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Chorva hayvonlarini 2023-2024-yillarda qishlov davridan betalofat olib chiqish bo'yicha Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, «Qorako'l» uyushmasining chorva hayvonlarini 2023-2024-yillarda qishlov davridan betalofat olib chiqish to'g'risida takliflari ma'qullansin.

2. Chorvachilik sohasida joylardagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish hamda chorvachilik subyektlarida qishlov mavsumini namunali o'tkazishni tashkil etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Aholi yashash punktlaridan uzoq hududlarda joylashgan xo'jaliklardagi chorva hayvonlari uchun talab etiladigan omuxta yem mahsulotlari to'g'risidagi hisob-kitobi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh (D.Kaypov):

**bir hafta muddatda** aholi yashaydigan punktlardan uzoq masofada joylashgan har bir chorvachilik subyektlarida chorva qishloviga tayyorgarlik ko'rish holatini, qishlov davri uchun jamg'arilgan dag'al va kuchli ozuqalar zaxirasini yaratish;

markazlashgan holda qorako'l qo'ylarini bo'rdoqilash va eksportbop qorako'lcha teri yetishtirish borasida olib borilayotgan ishlarini o'rganib chiqish va

aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralari ko‘rish;

ushbu qarorning 2-ilovasida keltirilgan hajmdagi shrot, sheluxa, kepak va boshqa omuxta yemlar faqatgina aholi yashaydigan uzoq masofadagi punktlarda joylashgan va ro‘yxatga kiritilgan chorvachilik subyektlariga ulardagi chorva mollari bosh sonidan kelib chiqqan holda adolatli ravishda ajratish va olingan mahsulotlarni otarlargacha yetkazib berish choralari ko‘rish topshirilsin.

4. «O‘zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasi» Qoraqalpog‘iston Respublika birjasi don korxonalari, yog‘- moy korxonalari, paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan birgalikda belgilangan tartibda qishlov davrida chorva mollarini betalofat va namunali o‘tkazish uchun aholi yashash punktlaridan uzoq masofada joylashgan naslli qorako‘lchilik xo‘jaliklari, qorako‘lchilik fermer xo‘jaliklari hamda ushbu hududlarda yashovchi aholi chorva mollari bosh sonidan kelib chiqqan holda shrot, sheluxa, kepak va boshqa omuxta yem mahsulotlari bilan uzliksiz ta‘minlash maqsadida belgilangan tartibda birja savdolari o‘tkazish ishlarini tashkil etsin.

5. “Qorako‘l” uyushmasi birja sovdalarida ishtirok etuvchi chorvachilik subyektlarining ro‘yxatini **ikki kun muddatda** shakllantirib taqdim etish hamda birja savdolarida ishtirok etishini ta‘minlasin.

6. Tuman hokimliklari:

“Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ bilan birgalikda chorvachilik subyektlari ayniqsa parrandachilik korxonalari uzluksiz ravishda elektr energiyasi bilan belgilangan tartibda ta‘minlash choralari ko‘rish;

“Taxiatosh neft bazasi” MCHJ bilan birgalikda olis cho‘l hududlarda joylashgan chorvachilik subyektlari otarlariga kuchli va dag‘al ozuqalarni yetkazib berish hamda chorva mollarini sug‘orish uskunalari doimiy ishlashini ta‘minlash maqsadida talab etiladigan hajmdagi dizel yoqilg‘isi va avtobenzin mahsulotlarini ushbu hududlarda joylashgan yoqilg‘i sotish shoxobchalari orqali belgilangan tartibda yetkazib berish choralari ko‘rsin.

7. Tuman hokimliklariga ishchi guruh bilan birgalikda cho‘pon uylarini, qo‘y-qo‘ralarini, chorvachilik bino-inshootlarini qishlovga tayyorlash va cho‘pon-cho‘riqlarga qishki kiyimbosh, dori-darmon vositalari, ichimlik suvi va asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan tizimli ta‘minlashga yordam ko‘rsatish vazifalari yuklatilsin.

8. O‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi, “Qorako‘l” uyushmasi tuman hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari bilan birgalikda:

chorva mollarini qishlovdan o'tkazish joylarida zarur miqdorlarda dag'al xashak jamg'arishni tashkil qilsin;

cho'l-yaylov hududlarida chorva mollarini boqishni tizimli tashkil etib, cho'l degeredatsiyasiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rsin;

yaylovlarning holatidan kelib chiqib, cho'l-yaylov ozuqabop ekinlarini doimiy ravishda har yili ekish va parvarishlash ishlarini ta'minlasin.

9. «Qorako'l» uyushmasi va Orolbo'yi dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi, tuman hokimliklari cho'l hududlaridagi chorva mollarini sug'orish tik quduqlari holatini to'liq o'rganib chiqib, zarur hollarda yaroqsiz holga kelgan tik quduqlarni ta'mirlash va tiklash choralari ko'rsin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari D.Kaypov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F.Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 16-dekabrda  
452-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Chorvachilik sohasida joylardagi mavjud muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish hamda chorvachilik subyektlarida qishlov mavsumini namunalii o'tkazishni tashkil etish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhi**

**T A R K I B I**

1. D.Kaypov - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari, **Ishchi guruh rahbari**
2. B. Naurizbaev - Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining o'rinbosari (*kelishuv asosida*)
3. K.Nurimbetov - Qishloq xo'jaligi vaziri v.v.b
4. B.Juzbaev - Suv xo'jaligi vaziri
5. B.Izbasarov - Ichki ishlar vazirining o'rinbosari
6. Q.Xodjametov - «O'zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasi» Qoraqalpog'iston Respublika birjasi boshqaruvchisi
7. A.Aminov - O'rmon xo'jaligi qo'mitasi raisi
8. A.Utemuratov - «Qorako'l» uyushmasi raisi
9. R.Yuldashev - «Qoraqalpoqdonmahsulotlari» AJ raisi
10. K.Palimbetov - «Qo'ng'iro't un zavodi» AJ raisi
11. A.Ro'zmetov - «To'rtko'ldonmahsulotlari» MCHJ boshlig'i
12. K.Qadirov - «Chimboy don» MCHJ boshlig'i
13. A.Xudaybergenov - «Taxiatoshdonmahsulotlari» AJ raisi
14. *Lavozimi bo'yicha* - Tuman hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari
15. T.Nizamov - «Qorako'l» uyushmasi raisining o'rinbosari, **Ishchi guruh kotibi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023-yil 16-dekabrda  
452-13-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Aholi yashash punktlaridan uzoq hududlarda joylashgan xo'jaliklardagi chorva hayvonlari uchun talab etiladigan omuxta yem mahsulotlari to'g'risidagi  
HISOB-KITABI**

T/p	Tumanlar nomi	Naslli qorako'l-chilik xo'jaliklari va qorako'lchilik fermer xo'jaliklar soni	qo'y-echki bosh soni	Aholi yashash punktlaridan uzoqda joylashgan hudud nomi	Aholi soni, nafar	Chorva hayvonlari, ming bosh		Talab etiladigan omuxta yem mahsulotlari, tonna			
						qoramol bosh soni	qo'y-echki bosh soni	sheluxa	kepak	shrot	boshqalar
1	To'rtko'l	57	19 767	"Ota ubo" OFY "Qizilqum" massivi	2 125	3 150	3 792	71	675	106	148
2	Beruniy	42	10 357	"Qizilqal'a" OFY	4 456	6 725	8 910	473	819	710	121
3	Ellikqal'a	29	7 321	"Qizilqum" OFY, "Chuqurqoq" MFY	3 741	1 661	4 525	74	291	111	68
4	Qorao'zak	18	7 404	"Qoybak" OFY	1 395	2 469	6 725	178	771	268	104
5	Taxtako'pir	40	17 479	"Mulk" OFY "Janadaryo" OFY "Qongiratko'l" OFY	3 376	10 977	28 877	545	1 832	818	290
6	Qo'ng'iro't	14	6 664	"Ustyurt" OFY	2 696	5 300	8 060	315	647	473	97
<b>Jami</b>		<b>200</b>	<b>68 992</b>	<b>X</b>	<b>17 789</b>	<b>30 282</b>	<b>60 889</b>	<b>1 657</b>	<b>5 034</b>	<b>2 485</b>	<b>829</b>